XALQ DEPUTATLARI ZOMIN TUMANI KENGASHI QARORI

2024 - yil 9 - fevral VI-54-23-3-48-K/24 Zomin tumani hokimligi

LOYIHA

Tumani hokimligi balansidagi xizmat avtomashinalariga yoqilg‘i moylash maetriallari olish va binoni saqlab turish kommunal xizmatlari uchun asosiy smetada mablag‘ yetishmasligi tufayli mahalliy byudjetining 2024-yil boshiga hosil bo‘lgan erkin qoldiq mablag‘lari hamda mahalliy budjetning daromatlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan qoplash to‘g‘risida

Tuman xokimligining 2024-yil tasdiqlangan xarajatlar smetasida birinchi navbatda ish xaqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun mablag‘ rejalashtirilganligi xamda 4-gurux (kommunal to‘lov va boshqa) xarajatlariga mablag‘lar ajratilmaganligi sababli tuman xokimligi boshqaruv apparati ish faoliyatini normal olib borish zarur bo‘ladigan kommunal xizmatlari va boshqa xarajatlar (telefon, internet aloqasi,pochta aloqasi, elektr energiya, yoqilg‘i, suv va boshqalar) uchun **mahalliy byudjetining 2024-yil boshiga hosil bo‘lgan erkin qoldiq mablag‘lari hamda mahalliy budjetning daromatlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan** mablag‘ ajratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Maxalliy davlat xokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan, Xalq deputatlari tuman kengashi

QAROR QILADI

1. Tuman hokimligining 2024-yil tasdiqlangan xarajatlar smetasida birinchi navbatda ish xaqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun mablag‘ rejalashtirilganligi xamda 4-gurux (kommunal to‘lov va boshqa) xarajatlariga mablag‘lar ajratilmaganligi sababli tuman hokimligi boshqaruv apparati ish faoliyatini normal olib borish uchun zarur bo‘ladigan kommunal xizmatlari va boshqa xarajatlar (telefon, internet aloqasi,pochta xizmati, elektr energiya, yoqilg‘i, va boshqalar) uchun **mahalliy byudjetining 2024-yil boshiga hosil bo‘lgan erkin qoldiq mablag‘lari hamda mahalliy budjetning daromatlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan** ajratish to‘g‘risida tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Omonqulovning

ma’ruzasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi mudiri (D.Mamatqulov)ga:

tuman hokimligiga 4-gurux xarajatlari kommunal xizmat va boshqa xizmatlar uchun asosiy smetada mablag‘ yo‘qligi sababli 1-ilovada ko‘rsatilgan xarajatlar turiga **mahalliy byudjetining 2024-yil boshiga hosil bo‘lgan erkin qoldiq mablag‘lari hamda mahalliy budjetning daromatlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan** 353 800 000,0 (uch yuz ellikuch million sakkiz yuz ming) so‘m ajratish xamda tuman hokimligi yillik xarajatlar smetasiga kiritish topshirilsin.

3. Tuman g‘aznachilik bo‘linmasi (O.G‘afforov)ga: 4-gurux-kommunal to‘lovlar (telefon, internet aloqasi,pochta xizmati, yoqilg‘i va boshqa) uchun to‘lovlarni o‘z vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazish va g‘azna ijrosini amalga oshirish topshirilsin.

4. Tuman hokimligi bosh xisobchisi v.v.b. A.Ro‘zibekovga: yuqorida ajratilgan mablag‘lardan xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalarga asosan maqsadli foydalanish vazifasi topshirilsin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari” bo‘yicha doimiy komissiya raisi (S.Ergashev) xamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Omonqulov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Abdug'aniyev**

Xalq deputatlari Zomin tuman
Kengashining
2024-yil 9-fevraldagi
VI-54-23-3-48-K/24-son qaroriga
1-ilova

Maqsadi	**Summasi (ming so‘m)**
Tuman hokimligi binosi elektr energiya xarajati 11 oyga	110 000,0
Tuman hokimligi binosi tabiiy gaz xarajati 5 oyga	50 000,0
Tuman hokimligi maxsus xonasi qo’riqlash xizmati 12 oyga	17 500,0
Tuman hokimligi internet aloqasi xizmati 12 oyga*1000 m.s.	12 000,0
Tuman hokimligi "e-qaror" axborot tizmidan foydalanish uchu.	51 300,0
Tuman hokimligi telefon xizmati uchun 12 oyga*1500 m.s.	18 000,0
Tuman hokimligi xizmat mashinasiga benzin 3 oyga	40 000,0
Tuman hokimligiga pochta xizmati uchun	20 000,0
Tuman hokimligi axborot xizmati texnik bazasi uchun	35 000,0
JAMI	**353 800,0**